



MA'RUZA MAVZU: SON SUYAGINING TUG'MA CHIQISHI

Djumanov Anvar Maxammadiyevich

Tayyorladi: Toshkent tibbiyot akademiyasi Chirchiq filiali “Bolalar kasalliklari propedevtikasi” kafedrasi mudiri

Kenjayeva Fotima Uskumbayevna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Chirchiq filiali “Bolalar kasalliklari propedevtikasi” kafedrasi o’qituvchisi

Raxmatova Zulfiya Mirzayevna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Chirchiq filiali “Bolalar kasalliklari propedevtikasi” kafedrasi o’qituvchisi

Annotation

Bugungi kunda bolalar orasida son suyagining tug'ma chiqishi asosiy qismni tashkil etadi. Shuning uchun ushbu kasallik haqida ma'lumotlarga ega bo'lib, o'z vaqtida oldi olinsa, davolash ishlari o'z vaqtida boshlansa ushbu kasallikni to'liq nazorat qilish mumkin va yuzaga keladigan asoratlardan holi bo'lish mumkin. Ushbu maqolada son suyagining tug'ma chiqishi sabablari, klinik manzarasi, davosi, profilaktikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: chanoq-son bo'g'imi, displaziya, gipovitaminoz, deformatsiya, lordoz, shina.

Son suyagining tug'ma chiqishi

Son suyagining tug'ma chiqishi bolalarda uchraydigan ortopedik kasalliklardan biridir.

Etiologiyasi

Ushbu kasallikning kelib chiqish sabablari to'g'risida olimlarimiz turli fikrlar aytib o'tishgan. Shulardan gipovitaminoz, gormonal o'zgarishlar va bolaning ona qornida rivojlanish paytida chanoq-son bo'g'imining normal o'smaganligi, nasldan-naslg'a o'tishlar kasallikka sabab bo'ladi, deb uqtirishgan.


Chanoq-son bo'g'imi tug'ma chiqishining sababi-displaziyadir. Bemor tug'ilganda chanoq-son bo'g'imi displaziyasini bilan tug'iladi. Son suyagining tos chanog'idan chiqishi ikkilamchidir, deb ta'riflashgan.



Klinik manzarasi.


Chaqaloqlarda mazkur kasallikning ilk belgilari:

1) Chaqaloqning ikkala soni tashqi tomonga yaxshi ochilmaydi. Buni tekshirish uchun ikkala oyoqni tizza va chanoq-son bo'g'imida 90 gradus bukib tashqari tomonga kengaytiriladi. Bunda sog'lom chaqaloqning soni tashqi tomonga 85-90 gradusgacha ochiladi. Agar son suyagi chiqqan bo'lsa, zo'rg'a 25-30 gradusgacha ochiladi. Chanoq-son bo'g'imining bir tomoni chiqqan bo'lsa, sog'tomondagi son suyagi tashqi tomondan yaxshi ochiladi. Kasallik ikkala tomonda bo'lsa, unda ikkala son tashqi tomonga baravar kerilmaydi. Chunki bo'g'imdan chiqqan son suyagi boshchasi yuqoriga siljib, tos suyagiga borib tiraladi, natijada uning harakati chegaralanadi va tashqi tomonga yaxshi ochilmaydi.





2) Sonning ichki tomondagi teri burmalarining har xil bo'lishi. Sog'lom chaqaloqlarda bu burmalar har ikkala tomonda bir xil bitta yoki ikkitadan simmetrik joylashadi. Son suyagi chiqqan tomondagi teri burmalari bir nechta va chuqurroq bo'ladi.



3) Bo'g'im shiqillashi.

Bu belgi ayrim chaqaloqlardagina qayd etilishi mumkin. Bunda oyoqni chanoq-son va tizza bo'g'imida 90 gradus bukib tashqariga kengaytirilganda chiqqan son suyagi o'z o'rniliga shilq etib tushadi, agar oyoqlar yana birlashtirilsa, yana tovush chiqarib, ya'ni shilq etib chiqib ketadi. Kasallikning bu belgisini chaqaloq hayotining birinchi haftasi va 15 kungacha, ayrim paytlarda 6-10 oylik bolalarda ham aniqlash mumkin.



4) Oyoqning kalta bo'lib qolishi.

Shuni aytib o'tish kerakki, sog'lom odamda barcha juft a'zolar, jumladan oyoqlar uzunligi, shakli, harakatlari bir xil bo'ladi. Demak, son suyagi, chanoq-son bo'g'imidan chiqqan tomonagi oyoq kalta bo'lib qoladi. Buni aniqlash uchun bolani orqasi bilan stolga yotqizib, ikkala oyog'ini to'g'ri, yonma-yon qo'yib tekshiriladi. Shunda bo'g'imdan chiqqan oyoq tovoni 1-2 sm yuqori turganini ko'rish mumkin. Shuningdek, tizza qopqog'i ustidan ko'ndalang chiziq o'tkazilsa, chiqqan tomonagi chiziq 1-2 sm baland ko'tariladi.





Oyoqning kalta bo'lib qolishi.



5) Oyoqning tashqi tomonga qarab buralishidir.

Sog'lom va 3-5 yashar bolalarni chalqancha yotqizib, oyoqlarini to'g'ri uzatib ko'rilmaga, oyoqning panja qismi va tizza qopqog'i yuqoriga qaragan, son hamda boldirlari to'g'ri holatda bo'ladi.



Tekshirish usullari




FIG. 76

Kasallikning kechki belgilari.

- 1) Kech va oqsoqlanib yurish belgisi. Kasallik qaysi tomonda bo'lsa, bola shu tomonga oqsoqlanib yuradi, ikkala tomonda bo'lsa, o'rdakka o'xshab yuradi. Ikkala tomondan son suyagi chiqqan qizlarning bo'yи past, qorni oldinga turtib chiqqan, pastga osilgan, beli esa oldinga siljigan (lordoz) bo'ladi. Ko'pincha bunday qizlarning onalari "bolamning bo'yи o'smayapti", deb vrachga murojaat qiladilar. Ba'zi vrachlar, ayniqsa pediatrlar kasallikning bu belgilarini raxit, deb noto'g'ri tushunadilar va bemorga raxitga qarshi davo buyurishadi.
- 2) Trendelenburg simptomi aniqlanadi-bolaning sog' oyog'ini bostirib, tikka turg'azganda kasal oyog'ining tovoni yerga tegmaydi. Kasal oyoqni yerga bosib tikka turilsa, tayanch bo'limganligi uchun bemorning gavdasi va dumbasi sog' tomonga og'ib qiyshayadi.


Davosi.

Son suyagi tug'ma chiqqan chaqaloqlarni davolashni ularning oyog'iga keruvchi moslama kiygazishdan boshlanadi. Keruvchi moslamani chaqaloqning ikki sonining ichki tomonidan qo'yiladi, so'ngra yuqori qismini orqasiga o'tkazib, yelka tomonidan oldiga olinadi. Pastki qismidagi ikkita uzun kamarchani oldidagi tugmasiga solinadi. Ikki yonboshidagi bog'ichlari bog'lanadi.

Hozirgi kunda 1988 yildan beri Toshkent pediatriya tibbiyat instituti klinikasida tadbiq etilgan oyoqni keruvchi moslama-shina qo'llab kelinmoqda.



Shinadan tashqari 6 oydan-3 yoshgacha gipsli bog'lamlar qo'llanadi. Gipsli bog'lam tizza bo'g'imida 90 gacha bukilib, boldirning to'piq sohasidan to son suyagining yuqori qismigacha qo'yiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Bolalar ortopediyasi” P.S.Jalilov, B.S.Tursunov, M.Xolxo’jayev. Toshkent, 2010 yil.
2. “Detskaya ortopediya” Yan Dous Visser 2022 y.
- 3.“Bemor bolalarni parvarish qilish va onalarga maslahat berish” Uslubiy qo’llanma. Toshkent, 2010 yil.
- 4.“Bolalikda hamshiralik ishi” fanidan metodik qo’llanma. Toshkent 2016. (UNISEF).

Internet saytlari: www.pediatria jurnal.ru